Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

*TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ*

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

# TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2




O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761


**Muassis:**
**Termiz davlat pedagogika instituti**

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI**

**ILMIY-USLUBIY JURNAL**
**Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

**Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.**

**Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026**
**Qog'oz bichimi: 70x85**
**Bosma tabog'i: 26,25**
**Ofset bosma. Ofset qog'ozi.**
**Adadi: 100 nusxa**
**Bahosi kelishilgan narxda.**
**Buyurtma: 174**
**Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.**
**"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.**
**Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.**

**BOSH MUHARRIR:**
**Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor**

**TEXNIK MUHARRIR:**
**Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**MAS'UL KOTIB:**
**To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:**
**Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)**
**Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)**
**Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)**
**Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)**
**Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)**
**Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)**
**To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)**
**Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)**
**Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)**
**Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)**
**Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)**
**Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)**
**Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)**
**Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)**
**Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)**
**Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)**
**Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)**
**Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)**
**Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)**
**Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)**
**Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)**
**Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)**
**Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)**
**Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)**
**Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)**
**Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)**
**Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)**
**Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)**
**Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)**
**Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)**
**Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)**
**Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)**
**Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)**
**Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)**
**Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)**

ISSN: 3060-4761


**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:**
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

**ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:**
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:**
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:**
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

**Основатель:**
Термезский государственный педагогический институт

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА**

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761


**Founder:**
**Termiz State Pedagogical Institute**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE**

**SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL**

**The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.**

**Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.**

**The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.**

**Permission to print: 12.03.2026**
**Paper size: 70x85**
**Printing plate: 26.25**
**Offset printing.**
**Offset paper.**
**Quantity: 100 copies**
**Price at the agreed price.**
**Order: 174**
**Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.**
**Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.**

**THE EDITOR-IN-CHIEF:**
**Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor**

**TECHNICAL EDITOR:**
**Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences**

**RESPONSIBLE SECRETARY:**
**Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences**

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
*TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ*

**UDK 378:37.013.43:7.01**
**ORCID: 0009-0000-6455-2873**
**XUDAYBERDIYEVA XURIYAT KARIMBERDIYEVNA**
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti falsafa fanlari doktori (DSc), professori**
**E-mail: xuriyat_xudayberdiyeva@tues.uz**

# YOSHLAR ESTETIK MADANIYATIGA MA'NAVIY-MAFKURAVIY YONDASHUV

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada yoshlarimizning ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pandu-nasihatlar va o'gitlar bilan kamol toptirish, qadimiy an'ana va udumlarimizdan bahramand qilish axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, yoshlarni estetik madaniyatida aks etadigan ma'naviy asoslar, milliy g'oya har bir shaxsning ertasi uchun yo'lboshchi va hammaslak vazifasini bajaradigan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda falsafiy dunyoqarash asosida estetik madaniyatning mafkuraviy negizlari shakllanib borishi, yoshlarni mentalitetidagi mafkuraviy jarayonlar o'zgarib, yangilanib, integratsiyalashib borishi natijasida yoshlar ongiga ta'sir e'tuvchi ma'naviy-mafkuraiy xususiyatlar ochib berilgan.
**KALIT SO'ZLAR:** *ma'naviyat, madaniyat, mafkura, mintalitet, milliy g'oya, taraqqiyot, qadriyat, axloq.*

# ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ МОЛОДЕЖИ

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье раскрываются вопросы духовного становления молодежи на основе назиданий и поучений, созданных нашими предками, приобщения к древним традициям и обычаям, их гармонизации с нравственными ценностями. Освещаются духовные основы, отражающиеся в эстетической культуре молодежи, а также роль национальной идеи как ориентира и единомышленника для будущего каждого человека. Показано формирование идеологических основ эстетической культуры на базе философского мировоззрения в системе социальных отношений общества. В результате изменений, обновления и интеграции идеологических процессов в менталитете молодежи раскрываются духовно-идеологические особенности, оказывающие влияние на сознание подрастающего поколения.
**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *духовность, культура, идеология, менталитет, национальная идея, развитие, ценность, нравственность.*

# SPIRITUAL-IDEATOLOGICAL APPROACH TO YOUTH AESTHETIC CULTURE

**ABSTRACT:** This article examines the spiritual development of young people through the moral teachings and guidance created by our ancestors, as well as their enrichment through ancient traditions and customs in harmony with ethical values. The study highlights the spiritual foundations reflected in the aesthetic culture of youth and emphasizes the role of the national idea as a guiding and unifying force for the future of each individual. It also explores the formation of the ideological foundations of aesthetic culture based on a philosophical worldview within the system of social relations in society. As a result of changes, renewal, and integration of ideological processes in the mentality of young people, the spiritual and ideological characteristics that influence the consciousness of youth are revealed.
**KEYWORDS:** *spirituality, culture, ideology, mentality, national idea, development, values, morality.*

ISSN: 3060-4761


**KIRISH.** Har bir davrda yoshlar o‘z oliy maqsadlari yo‘lida mavjud tizimning ma’naviy-mafkuraviy dunyoqarashini tez moslashuvchanlik qobiliyatlari bilan rivojlantirganlar. Ularning tafakkurida borliq haqiqatiga oliy ne’mat sifatida zavqiy munosabat shakllangan. Shu tarzda nafosatlilik va didlilik bilan borliq qonuniyatlarini tabiatda amal qilishiga ma’naviy yondashuvni vujudga keltirgan. Tabiatdagi narsalardan forig‘lanish, ularning jonli harakatlaridan zavqlanish ta’sirida ikkilamchi tabiatning yaratilishiga intilganlar. Bu amaliy faoliyat kishilarning jamiyatda estetik madaniyat unsurlarini unsurlarini mukammallik bilan yaratishga xizmat qilgan. Mamlakatimizda falsafiy-estetik islohotlarning rivojlanishi jarayonida yoshlar estetik madaniyatidagi o‘zgarishlarga nisbatan yangicha mafkuraviy nuqtai nazardan munosabat shakllanmoqda. “Yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitet shakllanmas ekan, “bu yaxshi, bu yomon” degan qat’iy fikr paydo bo‘lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo‘ladi”[1.178]. Shu boisdan yoshlarning mafkuraviy dunyoqarashini kuchaytirish, milliy ‘oya ruhini estetik ongiga chuqur singdirish faoliyatimizning muhim yo‘nalishi bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekiston yoshlarining estetik ongi va madaniyatini turli xurujlardan himoyalashning mezonlari hamda tamoyillarini aniqlashning samarali mexanizmlarini yaratishni voqelik taqozo etmoqda. Mazkur ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarning fundamental asoslarini yangicha falsafiy-estetik yondashuv asosida tadqiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ma’naviyat inson uchun hamisha porloq istiqbolga boshlovchi buyuk kuch sifatida jamiyatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib borgan. Uning kuchidan qadimdan ulug‘ allomalar, donishmandu-faylasuflar oqilona foydalanish uchun intilganlar. Bundan ma’naviy ozuqa olishda esa odamlarning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy-mafkuraviy kamolotiga erishish dolzarb jarayon sanaladi. Bunday jarayonda mohir ajdodlarimiz uzoq tarix davomida yaratgan ajoyib obidalar shu xalqimizning donishmandlik borasidagi pandu-nasihatlari, yuksak aql-zakovatidagi buyuklik asrlar osha sayqallanib borgan. Biz faxrlanib aytadigan va ildizi necha ming yilliklarga borib tutashadigan boy madaniy merosimiz nafaqat bugungi “kungacha etib kelibgina qolmay, ular ajoyib iste’dodli ijodkorlar tomonidan rivojlantirilgan”[2.316]. Natijada, ota-bobolarimizning dunyo tamaddunidagi yaratgan ma’naviy boyliklari bugungi kunda o‘zining buyukligi va abadiyligi bilan barcha insoniyat uchun xizmat qilib kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-mafkuraviy islohotlarning bosh maqsadi bevosita yoshlarimiz ongida kelajakka ishonch tuyg‘usini yanada mustahkamlash, milliy va iftixor bilan yuksak marralar sari ildam qadam tashlashiga erishish hamda milliy g‘oyani rivojlantirishdir. “Bu g‘oya mehnatsevarlik, qat’iy iroda, sabr-toqat, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, yaxshilarga ergashish, yomondan qochish singari xalqimizga xos fazilatlarning yanada sayqal topishiga xizmat qiladi”[3.17]. Xalqimizga xos milliy g‘oya asosida tarbiya topib ulg‘ayayotgan yoshlarimizda chidamlilik, olijanoblik va bag‘rikenglik sifatlari shakllanadi. Natijada bu yoshlar engil-elpi, yuzi yaltiroq-ichi qaltiroqlarga uchmasdan, o‘zlaridagi metin iroda va mustaqil tafakkurni boyitib borib haqiqiy estetiklikni anglay oladilar.

Yoshlarimizning ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pandu-nasihatlar va o‘gitlar bilan kamol toptirish, qadimiy an’ana va udumlarimizdan bahramand qilish axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib ketgan. “Xalqimiz orasida keng tarqalgan, taqiq va rag‘bat ruhini o‘zida mujassam etadigan “ofarin”, “balli”, “yashang”, “unday qilmang”, “uyat bo‘ladi”, “savob bo‘ladi”, “uvol bo‘ladi” kabi so‘z va iboralarda bunday munosabat o‘zining yaqqol ifodasini topgan”[4.26]. Shu kabi axloqiy ideallarga rioya qilish yoshlarimizda yuksak ma’naviyatni shakllantirish bilan birga o‘ziga xos mafkuraviy immunitetni vujudga keltiradi.

Yoshlar estetik madaniyatida aks etadigan ma’naviy asoslar bevosita bir qator omillarga tayanadi. U omillar quyidagilarda ifodalangan:

-farzandlarni go‘zal xulq-atvorli qilib tarbiyalash, ajdodlarning pand-nasihatlari va o‘gitlarini o‘rgatishda;

-milliy qadriyatlarni e’zozlash, aksiologik va diniy qoidalarga amal qilmoqlari hamda ijtimoiy hayotda mavjud tabularga itoat qilishda;

-atrof-tabiiy muhitga muhabbat asnosida tarbiyalanib, ajdodlarning boy moddiy va ma’naviy merosiga hurmat ruhida voyaga etkazishda;

-insoniyatning madaniyati rivojida donishmandlar yaratgan odob me’yorlari, axloqiy sifatlari va huquqiy mezonlarni kelajakka etkazishda;

-yoshlarda vatanparvarlik, yurt uchun fidoyi bo‘lish, ajdodlarning o‘gitlarini asrab-avaylash tarixan shakllangan madaniyatini boyitish, milliylikka tayanishda;

-oilaning muqaddas qadriyat sifatida estetik

an’analarini hurmat qilishi, e’zozlashi ifodalanishida;

-ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy madaniyatning estetik ideal va tasavvurlarda ifodalanishi, turli marosimlarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglagan holda axloqiy hamda estetik me’yorlar asosida o‘rganishda;

-necha ming yillar davomida tajribadan o‘tkazib, sayqallanib, insonlar mohiyatiga tasir ko‘rsatib

kelayotgan osori-atiqalarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda.

Bizgacha etib kelgan yoki ba'zi sabablarga ko'ra unutilgan ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'rganib, ilmiy tadqiq etish kerak. Buning uchun har bir geografik muhitni o'rganish, tevarak-atrofimizda bo'layotgan o'zgarishlarda arxeologik manbalarni ham izlab topish maqsadga muvofiqdir.

O'tmishda ajdodlar tomonidan yaratilgan yoki kelajakda yaratiladigan moddiy va ma'naviy boyliklar mahsuli madaniyat sifatida qaraladi. Ma'naviy jihatdan esa shaxsning ichki dunyosi va ruhiyatiga ta'sir etadigan boyliklarning yaratilishi ham mafkuraviy immunitetning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham ma'naviyat buyuk qudratga ega bo'lgan insonning ijtimoiy ongi sifatida jamiyatda xilma-xil madaniyat ko'rinishlarini qamrab oladi. Uning sermazmun qirralarini yoshlarning ongiga singdirishda go'zallikdan zavq olish ham muhimligini yoshlarga o'rgatish kerak. Bugungi islohotlarimizning maqsadi ham yoshlar estetik ongida milliylikka xos zamon bilan hamnafaslikka ega falsafiy dunyoqarashni aks ettirishni ko'zda tutmoqda. Inson o'zining ma'naviy olami tufayli borliqdagi go'zallikni anglaydi, uni his etib, yuksak tuyg'ularni o'zida ifodalaydi. Jamiyatda har bir dunyoga kelgan go'dakning qalbida avvalo insoniylik tuyg'ulari, axloqiy ideallar ona suti bilan singdirilsa, asta-sekinlik bilan ulg'ayish jarayonida estetik qarashlar va ideallar singdirib boriladi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Ma'naviyatning tadrijiy rivojlanish jarayonida estetik faoliyat jamiyatdagi asosiy boshqaruvchilik vazifani bajaradi. Uning bu vazifasi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, odamlar ruhiyatida yangilikka, ijodiy izlanishga imkoniyat yaratib beradi. Yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tafakkur asosida ishlashi, zavqiy holatlarni his etishi, voqelikka dialektik yondashuvi tarbiya bilan bog'liq jarayondir. bu holat yoshlarning ma'naviy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, tabiiy va madaniy boyliklardan foydalanishda jo'shqinlikni kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, "estetik ehtiyojning umumiy belgisi shuki, u inson faoliyatining butun jabhalarini qamrab oladi, ular orqali namoyon bo'ladi, unga ma'naviy ruh baxsh etadi"[5.23]. Demak, estetik ehtiyojlar jamiyatda madaniyatning taraqqiy etishiga, real voqelikdan uzoqlashmagan holda ma'naviy madaniyatning boyishiga olib keladi. Bunday sharoitda yoshlar ham jamiyatning faol ishtirokchisi sifatida xalqning manfaatlariga mos estetik dunyoqarashni shakllantirishlari lozim.

Yoshlar estetik tafakkurining ma'naviyat bilan uyg'unlashishi, mafkuraviy bilimlar rivojida yangilanib boradi. Unda asrlar davomida yig'ilgan boy tajriba, malaka va ko'nikmalarning roli aks etib, jamiyatning ma'naviy sohasidagi o'zgarishlarga ta'sir etadi. Insonning e'tiqodi va intilishlari estetik madaniyat ravnaqida muhim sanalib, mazkur jarayonda tarixiy omillar ham shakllanadi. "Jamiyatda estetik madaniyatning rivojlanish qonuniyatlari shaxs ideallari, hayot tarzi va mehnat faoliyatida zarur omil bo'lgan ijodkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi"[6.32]. Natijada obyektiv omillar tarixiy sharoitda faol bo'lgan madaniyatlarning rivojlanishiga, subyektiv omillar esa, hozirgi davrda amal qilayotgan qonunlarga insoniyatning ta'siri natijasida milliy ong, ma'naviy va madaniy faoliyatning ta'sirini namoyon qiladi.

Jamiyatga ma'naviy-mafkuraviy yondashuv inson qadrini ulug'lashni, har bir fuqaroda davlatning yoshlarga qaratayotgan e'tiboriga o'z hissasini qo'shish tuyg'usini qaror toptirish muhim sanaladi. Yangi O'zbekiston yoshlarining estetik madaniyatini rivojlantirishda bu masala muhim xususiyatga ega bo'lib, o'zaro dialektik birlikda aks etadi. Bu bog'liqlikning muhim tomoni shundaki, jamiyatda yoshlar estetik tafakkuriga ma'naviy omillarning ta'siri qanchalik kuchli bo'lsa, real voqelik estetik ideallariga yot g'oyalarning kirib kelishining shunchalik oldi tez olinadi. Bunday faoliyatning masarali jihati yoshlarning mafkuraviy immunitetining qay darajada rivojlanganligini bog'liq bo'ladi. "Demak, bilim, iymon, e'tiqod, ma'rifat va yuksak axloqiy ideallar buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishida yoshlarimiz ongi va qalbi uchun mustahkam qalqon vazifasini o'taydi"[7.90]. Yoshlarning estetik tafakkurida qanchalik ko'p ijobiy tushuncha va tuyg'ularni shakllantirsak, kelajakda ularning ma'naviyati shunchalik namunali bo'ladi. Jamiyatimizdagi axloq va odobga doir ko'plab masalalarning tagida ham yoshlarning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni oshirish, milliy qadriyatlarni e'zozlash yotadi. Ularning yurish-turishi, madaniyati, muomala layoqati, mantiqiy fikrlashidan boshqalarning axloqiy ideal sifatida foydalanishi mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonning bilimli yoshlarini kamol toptirish, o'zbek xalqi tomonidan asarlar davomida sayqallanib kelgan an'ana, marosimlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Odamlarning hayoti va milliy turmush darajasida farovonlik, ma'naviyatda bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik o'zining o'rnini ko'rsata boshladi. Yoshlar ham bu faoliyatda o'zlarining faolligini namoyon etib, yangiliklar sari intilmoqdalar. Bunday faoliyatning yaratilishi uchun odamlarning ongu-tafakkurida yangicha qarashlar, jamoaviylikka birlashish bilan dunyo ilm-fani rivojida o'z o'rniga ega bo'lish, milliy g'oyaning qadriyatlarini ko'rsatib berish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mafkuraning yoshlar estetik ongida aks etishi, milliylik va umuminsoniylik kasb etishi, xalqning ruhiyatida kelajakka ishonchning kuchayishi barchani milliy g'oya

bilan yaqinlashishga undadi. Jamiyatdagi mafkuraviy negizlarning baquvvatligi tufayli avlodlar almashinuvida milliy g'oyaga mustahkam e'tiqod, hamfikrlik, o'zaro ishonch, hurmat-izzat, ertangi kelajakka qaratilgan yangi yo'l, insonning qadrini yuksaklikka ko'taruvchi ma'naviy kuch mavjud. "Haqiqatdan ham ajdodlarimizning hayotiy faoliyati iymon va e'tiqod, inson va vijdon kabi ibrat bo'la oladigan inson hayotining ulug'vor ma'naviy ustunlariga tayangan holda kechganligiga guvoh bo'lamiz"[8.145]. Unda milliy g'oya har bir shaxsning ertasi uchun yo'lboshchi va hammaslak vazifasini bajaradi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda falsafiy dunyoqarash asosida estetik madaniyatning mafkuraviy negizlari shakllanib boradi. Bular quyidagilardan iborat:

-tarixiy rivojlanish jarayonida sayqallanib kelgan qadriyatlarning keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirilishi asosida o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi mafkuraviy vorisiylikning vujudga kelishi;

-asrlar davomida xalq tomonidan amal qilib kelgan milliy (Navro'z, mavsumiy xalq sayllari) va diniy (Ramazon hayit, Qurbon hayit) bayramlarning estetik madaniyat tizimida mafkuralashib borishi;

-dunyo tamadduniga o'z hissalarini qo'shgan buyuk mutafakkirlarimiz ma'naviy meroslarining fuqarolik jamiyatida o'z o'rnini topishi va jamiyatda mafkuraning asoslariga aylanishi;

-ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy madaniyatimizning jahon xalqlari estetik tafakkuriga ta'siri rolini milliy mafkura asosida yoshlarga etkazishning zarurligi.

Xalqimiz orasidan etishib chiqqan buyuk allomalar va ulamolarning tarixiy va falsafiy asarlarining yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirishga qaratilgan jihatlarini ochib berilishi jamiyatimizning katta yutug'idir.

Avlodlar o'rtasidagi vorisiylik, yosh avlodning ajdodlarimiz ma'naviy-mafkuraviy merosini chuqur o'rganishi natijasida tarixga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Bunday jarayonlarni kuchaytirish uchun "odamlar bir-biriga yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi, bunyodkor urf-odatlarni va an'analarni targ'ib etishi kerak"[9.107]. Har bir fuqaroning ongida kelajakka bo'lgan intilishni estetik tafakkur doirasida amalga oshirish o'zining ijobiy samarasini beradi. Buning uchun har bir fuqaroning, jumladan yoshlarning faolligini oshirish, tarixga madaniy yondashuvni rivojlantirish lozim.

O'zbek xalqining ko'p ming yillik ma'naviy-mafkuraviy merosi keyingi yillarda yanada yuksalib, Vatan, ona yurtga nisbatan iftixor tuyg'ularini kuchaytirmoqda. Buni quyidagi omillarda ko'rishimiz mumkin: birinchidan, yurtimizdan etishib chiqqan ilm-fan va madaniyatning barcha sohalaridagi allomalarimiz ma'naviy merosining butun jahon ahli tomonidan dunyoviy bilimlar xazinasi sifatida tan olinganligi; ikkinchidan, qariyb o'n to'rt asrdan buyon xalqimizning mustahkam e'tiqodiga aylanib ketgan islom dinining boqiy nurlari shu zaminimizni makon qilganidir. Buyuk bobolarimiz yaratgan ma'rifat va islom ma'naviyatining noyob durdonalari bizning tarixiy-estetik madaniyatimizda namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu zamindan etishib chiqqan ajdodlarimizning dunyoviy va diniy ilmlar taraqqiyotida jahon tamadduniga qo'shgan hissalari barchamiz uchun faxr-iftixor sanaladi. Bular xalqimizning ma'naviy olamini o'zida ifodalagan falsafiy tafakkur asosida mafkuraning mustahkam bo'lishiga, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarning yoshlar ongiga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qilgan.

Har bir davr ijtimoiy muhitida ma'naviy-mafkuraviy asosga ega bo'lgan omillar hamisha tarix uchun qiymatga ega bo'lgan milliy o'zlikni anglash, tarixiy tajribasini umumlashtirish, huquqiy normalarni tartibga solib turish uchun xizmat qilgan. Bu jarayonlarning qadimiyligi, mazmunan chuqurligi va rang-barangligi, bugungi kunda mafkuraviy imkoniyatlarimiz cheksiz ekanini ko'rsatadi. Buni xalqimiz tomonidan yaratilgan "Avesto"dan tortib, islom dini, Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur, Ulug'bek, A.Donish, Fitrat, Cho'lpon, Behbudiy, Avloniy, Qodiriy kabilarning siymosi va qoldirgan boy ma'naviy merosida ko'rishimiz mumkin. "Shu sababli yoshlar ma'naviy kamolotini yuksaltirishda, barkamol avlod tarbiyasida buyuk mutafakkirlar ma'naviy-mafkuraviy merosining ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi [10.6]. Ularning g'oyalarini yosh avlodning ongiga singdirishda ta'lim muhim ahamiyatga ega. Biz bu jarayonlarni samarali va foydali qilib amaliyotda qo'llashimiz lozim.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda har bir xalqning tarixan shakllangan mafkurasi, buyuk allomalarining pand-nasihatlari va o'gitlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat asosida xalqning asrlar davomida shakllanib kelgan falsafiy tafakkuri boy milliy meros bilan uyg'un holda yoshlarning estetik madaniyati rivojiga keng imkoniyat yaratadi. Yoshlar hayotining porloq bo'lishini ta'minlashda mafkura ham o'ziga xos ijtimoiy muammolarni hal etishga yordam beribgina qolmasdan, mentalitetdagi mafkuraviy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada yoshlar mentalitetidagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar o'zgarib, yangilanib, integratsiyalashib bormoqda. Bunday faoliyat natijasida yoshlar ongida quyidagi ma'naviy-mafkuraviy xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1.Yoshlar birlashganda hamisha katta kuch bo'lib, xalqning xohish-istaklari, orzu-mayllarini ma'naviyat

olamida rivojlantirgan. Bizning bugungi maqsadimiz ham yoshlarda jipslik, hamfikrlik, birlik, faollikni yuqori pog'onalarga olib chiqish hisoblanadi;

2.Yoshlarda har doim o'zi yashayotgan jamiyatning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda ma'naviy-mafkuraviy uyg'onish sodir bo'ladi;

3.Har bir voyaga etib kelayotgan farzand tarbiyasida ma'naviyat muhim omil vazifasini bajarsa, mafkura uning kelajakka qaratilgan g'oyaviy qarash va e'tiqodini mustahkamlab, teran tafakkur va huquqiy ongning yuksalishiga xizmat qiladi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishga yoshlarning moslashishlari yoki moslasha olmasliklari ham ertangi taraqqiyot uchun o'z ta'sirni ko'rsatadi. Shu boisdan ma'naviy-mafkuraviy jarayonlardagi o'zgarishlarning asosiy mohiyati nimadaligini anglab etish, unga munosabat bildirish, innovatsion g'oyalarni maqsadga muvofiq tarzda faoliyatga yo'naltirish lozim. Estetik madaniyatdagi o'zgarishlarda ma'lum darajada adaptatsiyaning ham o'rni bo'ladi. Yoshlar bugun o'z faoliyatida voqelikka estetik ong bilan munosabatda bo'lib, qadriyatlar tizimini boyitishga, milliylik bilan zamonaviylik dialektikasini shakllantirishga intilmoqdalar. Bunda yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy "qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish strategiyalarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish vositalari, usul va metodlarini belgilab berish ham muhim vazifalardan biridir" [11.424]. Mazkur ijtimoiy munosabatlarga nisbatan yurtimizda o'ziga xos tizim shakllangan bo'lib, bunda harakatlar strategiyasi muhim dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

Har bir davrning ma'naviy progsessiv holatlarida yoshlar jamiyatni harakatga etaklovchi asosiy mezon sifatida maydonga chiqadi. Bunda mavjud estetik madaniyat namunalari boshqalarga ham o'tkaziladi. Bu jamiyatdagi yoshlarni o'z qobiliyat va imkoniyatlarini farovon kelajakka safarbar etishga, hayotni go'zallik qonunlari bilan boyitishga undaydi. Bunday intilish yoshlarning real voqelikka dialektik yondashuvda bo'lishi bilan bir qatorda borliqdagi narsa va hodisalarning ikkinchi tabiatini shakllantirishga, milliy mentalitetni ijtimoiy normalar bilan birlashtirishga yo'l ochadi. "Yoshlarda paydo bo'layotgan estetik ong va fikrlash qobiliyatlari asta-sekinlik bilan rivojlanib, borishi natijasida ularning aqli, idroki, zakovati shakllanadi"[12.49]. Yoshlarning bunday estetik madaniyati xalqning ijtimoiy qadriyatlari, insonparvar demokratik tamoyillar bilan mafkura asosida uyg'unlashsa, inson o'z hayotida uchraydigan har qanday to'siqlarni engib o'tib, yuksak bunyodkorlik sari o'zining kuch-qudratini namoyon qiladi.

Asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib, xalqning ishonch-e'tiqodiga aylanib ketgan "milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning tarkibiy qismlari bo'lgan milliy iftixor, ya'ni millatga xos moddiy va yutuq, o'z millatining ma'naviy merosi, urf-odatlari va ma'naviy boyliklarini asrashimiz kerak"[13.206]. Buning uchun har bir shu jamiyatning fuqarosi bo'lgan shaxs tevarak-atrofda bo'layotgan voqealardan uzluksiz xabardor bo'lib turishi, ma'naviy sohadagi islohotlarda etakchi sifatida qadriyatlarning himoyachisi bo'lib maydonda mehnat qilishlari darkor.

**XULOSA.** Yoshlar ongida shakllangan axloqiy normalarning zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlash amaliyotda o'zining in'ikosini ifodalashi kerak. Buning uchun esa, har bir fuqaro jamiyatdagi fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglab etishi muhim hisoblanadi: birinchidan, yosh avlod xohish-istaklari va intilishlarini milliy g'oyada mujassam etgan holda, olib borilayotgan islohotlar natijadorligiga ishonch tuyg'usini oshirib borish; ikkinchidan, globallashuv sharoitida yot madaniy g'oyalarga qarshi tura oladigan ajdodlarimiz ma'naviy merosi mohiyatini to'g'ri tushuntirib berish; uchinchidan, milliy vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish orqali, yangi O'zbekistondagi islohotlarning samarasi yaqin kelajakda jamiyatning yangilanishiga ishonchni shakllantirish, yoshlarda faol fuqarolikni mustahkamlashga xizmat qilishi; to'rtinchidan, yangi O'zbekistonning strategik faoliyat mezonlari va omillariga e'tiborli bo'lish, xalqning orzularining ifodasini yoshlar ko'z o'ngida gavdalanayotganligiga iqror qilish lozim. Joylarda xalqning ishonchli vakiliga ega bo'lishida har bir fuqaroni, jumladan yoshlarni misollarda ko'rsatish lozim. Shundagina biz haqiqiy adolatparvar davlatning estetik madaniyati borasidagi amaliy faoliyatimizni yorqin tarzda ifodalagan bo'lamiz.

Umuman olganda, yoshlarning ma'naviyat dunyosini kengaytirish, zamonaning eng so'nggi bilimlari bilan o'qitish har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bizning yoshlar qaratayotgan e'tiborimiz bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizning ko'z o'ngida real voqelik sifatida namoyon bo'layotganligi bilan ham xarakterlanadi. Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy yondashuvlarni kuchaytirish, asrlar davomida taraqqiyotning mezoniga aylangan ma'naviy madaniyatni yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu ishlarimizni amalga oshirishda xalqning hamfikr, hammaslak va birligi hamisha o'zining samarasi va natijadorligi bilan kelajakka xizmat qilgan.

ISSN: 3060-4761


## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


*1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: Ўзбекистон: 2020. –Б. 178.*

*2.Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. –Тошкент: O'zbekiston, 2012. –Б. 316.*

*3.Мирзаолимов Б. Ёшлар онгида миллий ғояни шакллантириш. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –Б. 17.*

*4.Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. –Тошкент: Akademiya, 2008. –Б. 26.*

*5.Собирова З. Маънавият ва эстетик маданият // Миллий истқлол ғояси ва мафкураси: фалсафий ва ҳуқуқий жиҳатлар. –Тошкент: 2001. –Б. 23.*

*6.Ғайбуллаев О. Эстетик маданият. –Тошкент: Навруз, 2020. 32.*

*7.Самадов А. Ахлоқий идеалнинг фалсафий масалалари. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2012. –Б. 90.*

*8.Набижонов А., Набижонова Д.Тарихий қадриятлар миллий ғоянинг муҳим асоси // Миллий ғоя: маънавият ва маърифат. Республика илмий-назарий, амалий-услубий конференцияси материаллари. –Тошкент: 2007. –Б. 145.*

*9.Юлдашева Р. Э. Демократик жамиятни барпо этишда миллий анъаналар ва урф-одатларнинг ўрни // Ҳозирги замон жамияти тизими: миллий ва умумбашарий томонлари. Минтақавий илмий-назарий конференция материаллари. –Самарқанд: 2005. –Б. 107.*

*10.Маънавий тарбия: Хрестоматия. –Тошкент: "Turon zamin ziyo", 2014. –Б. 6.*

*11.Тагаев Г.Х. Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг назарий жиҳатлари // "Ўзбекистонда талаба-ёшлар миллий-маънавий хавфсизлигини таъминлаш омиллари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси. –Тошкент: 2019. –Б. 424*

*12.Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. –Тошкент: Chashmaprint, 2008. –Б. 49.*

*13.Рахмонов А. Фуыаролик жамиятини ривожлантиришда ёшлар тарбияси ва миллий-маънавий ыадриятлар уй-унлиги // "Соғлом турмуш тарзи – маънавий баркамол авлод пойдевори" илмий-амалий конференция матеираллари. –Тошкент: 2014. –Б. 206*